

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

VOYAGA YETMAGANLARGA IJTIMOIIY-HUQUQIY YORDAM KO'RSATISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Jumaniyazova Iroda Kurbanbayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishning nazariy va huquqiy asoslari kompleks ravishda tahlil qilinadi. Unda voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash hamda nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishda ijtimoiy-huquqiy yordamning o'rnini atroflicha yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalar, xususan, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyatiga oid huquqiy mexanizmlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Voyaga yetmaganlar, ijtimoiy-huquqiy yordam, huquqiy himoya, konstitutsiyaviy kafolat, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi, ijtimoiy moslashuv, reabilitatsiya.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy jihatdan himoya qilish demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxsning jismoniy, aqliy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish nafaqat oilaning, balki davlat va jamiyatning ham muhim vazifasidir. Shu nuqtayi nazardan, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish, uning mazmuni va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasida oila, bolalar va yoshlarning huquqiy maqomiga oid fundamental qoidalar mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 77-moddasiga muvofiq, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi haqida g'amxo'rlik qilishga

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

majburdirlar. Shu bilan birga, davlat va jamiyat yetim hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va ta'lim olishini ta'minlashga mas'ul ekani konstitutsiyaviy darajada belgilangan.

Konstitutsiyaning 78-moddasi voyaga yetmaganlarning huquqiy himoyasini yanada kuchaytiruvchi muhim konstitutsiyaviy kafolatlarni o'zida mujassam etadi. Mazkur normaga ko'ra, farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Eng muhimi, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati sifatida belgilangan. Bu qoida voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni davlat siyosatining oddiy ijtimoiy yo'nalishi emas, balki konstitutsiyaviy majburiyat sifatida baholash imkonini beradi. Voyaga yetmaganlarga yordam ko'rsatish masalasida oila, ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ijtimoiy xizmatlar va boshqa vakolatli subyektlarning o'zaro hamkorligi ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, zo'ravonlik yoki ekspluatatsiyaga duchor bo'lgan, ta'lim olishdan chetda qolgan yoxud huquqbuzarlik sodir etish xavfi mavjud bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashda individual yondashuvning ahamiyati yuqoridir.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishning muhim tarkibiy qismlaridan biri ularning nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish, huquqbuzarlik sodir etishiga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni reabilitatsiya qilishdan iborat. Bu "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari to'g'risida"gi Nizomda belgilangan bo'lib, shuningdek ushbu hujjatda Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlari; Voyaga yetmaganlarni Markazlarga qabul qilish va ulardan chiqarish asoslari; Nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va ularni qabul qilish tartibi; Markazda voyaga yetmaganlarni saqlash tartibi; Markazda voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish tartibi; Voyaga yetmagan shaxsni ota-onasiga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga topshirish; Markaz faoliyatini tashkil etish tartibi bilan bog'liq normalar belgilangan.

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

Markazlarning asosiy vazifalari:

qabul qilingan voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

voyaga yetmaganlarga tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish.

Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining muhim jihati shundaki, ular voyaga yetmagan shaxs bilan bog'liq muammoni faqat huquqbuzarlik yoki nazoratsizlik nuqtayi nazaridan emas, balki uning ijtimoiy hayoti, oilaviy sharoiti, ta'lim olish imkoniyati va psixologik holati bilan birgalikda baholash imkonini beradi. Bunday yondashuv bolaning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yordam choralari ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijada voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat nazorat yoki ta'sir choralari qo'llash emas, balki uning muammolarining sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks yondashuv shakllanadi.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari Konstitutsiyaviy normalar, bola huquqlarini himoya qilishga oid maxsus qonunchilik, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid huquqiy normalar hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar majmuida namoyon bo'ladi. Mazkur huquqiy asoslarning mavjudligi voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan kafolatlangan holda himoya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu mexanizmlarning samaradorligini oshirish, turli vakolatli subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yordamga muhtoj voyaga yetmaganlarni erta aniqlash va ularga individual yondashuv asosida kompleks xizmatlar ko'rsatish masalalari mazkur yo'nalishni ilmiy jihatdan tadqiq



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

etishni taqozo etadi. Ana shu holatlar voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishning huquqiy asoslarini o'rganishning dolzarbligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023
2. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.01.2008. O'RQ-139-son.
3. "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021
4. "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori. 03.08.2021

